DIFFERENTSIAL O‘QITISH USULLARIDA GURUH BO‘LIB ISHLASH METODI

Bo‘riboyev Aziz Abdumannonovich - Jizzax politexnika instituti o‘qituvchi
E-mail: boriboyev2020@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada differentsial ta‘lim muhitida talabalarning turlicha va turli sur’atlarda fanni o‘rganish tamoyili asosli deb hisoblab, kichik guruhlarda ishlash metodida o‘qituvchi tomonidan berilgan ma’lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish, berilgan topshiriqning echish yo‘llarini ishlab chiqish haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, shakl, uslub, mustaqil ish, o‘zini tarbiyalash, tashkil qilishning vositalari, interaktiv metodlar, deferentsatsiyalash

Hozirgi vaqtda oliy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari o‘z talabalarining turli xil ta‘lim ehtiyojlarini qondirish muammosiga duch kelmoqdalar. Talabalarning ilm olish darajalari bir-biriga o‘xshamaydi va ularning qobiliyatlari ham turli xildir. Ushbu xilma-xillikni samarali hal qilish uchun talabalarni tabaqalashtirilgan (differensialashgan) o‘qitish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Differentsial ta‘lim - bu o‘qitish strategiyalari va mazmunini individual holda talabalarning ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradigan yondashuv bo‘lib, barcha talabalar o‘z bilimlari darajasida muvaffaqiyatga erishishlarini ta‘minlaydi [1]. Differentsial ta‘lim, u talabalarning turlicha va turli sur’atlarda fanni o‘rganish tamoyiliga asoslanadi [2]. Talabalarning barchasiga bir xil yondashuvni qo‘llash o‘rniga, har bir talabalarni jalb qilish va shaxsiy o‘rganish imkonyatlaridan kelib chiqib, qiyinchilik tug‘dirishni maqsad qilib, ushbu farqlarni hisobga olgan holda o‘qitishni moslashtiradilar [3].

Kichik guruhlarda ishlash metodida o‘qituvchi tomonidan berilgan ma’lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, berilgan topshiriqning echish yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metoddir [4].

Ushbu metod qo‘llanilganda o‘quvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. Kichik guruhlarda ishlash metodi qo‘llanilganda o‘qituvchi boshqa noan’anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi [5]. Chunki o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Differentsial ta‘lim o‘qitish usullari bilan farqlab olingan guruh o‘quvchilaridan o‘qituvchining tashabbusi bilan qayta guruhlanish amalga oshiriladi. Bunda guruh tarkibida o‘zlashtirishi yaxshi va o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilardan tashkil

topgan bo‘lmog‘i lozim. Kichik guruhlar belgilanadi. O‘quvchilar guruhlarga 3-5 kishidan bo‘linishlari mumkin.

Kichik guruhlarda ishlash metodini qo‘llash bosqichlari:

-Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

Har bir guruhda o‘zlashtirishi yaxshi va o‘zlashtirishi past bo‘lgan to‘garak a’zolari bo‘lishi kerak;

- guruh a’zolari bir-birini tushunadigan, inoq bo‘lishlari, maqsad jihatidan bir biriga mos bolalarning bir guruhda bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir;

- guruh a’zolari yuzma-yuz o‘girishlari kerak;

- vazifani boshqa guruhlarga nisbatan oldin bajarib bo‘lgan guruh a’zolariga qo‘shimcha topshiriqlar ham oldindan tayyorlanishi va bunday topshiriqlar har bir guruh a’zosida yoki guruhga umumiy bo‘lishi mumkin;

- taqdimot vaqtida har gal har xil to‘garak a’zosining chiqishi muhimligini o‘qituvchi tomonidan inobatga olishi kerak.

Tashkil etilgan kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar. O‘qituvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va o‘qituvchi tomonidan yo‘naltirib turiladi. Yakunda kichik guruhlar taqdimot qiladilar. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi. So‘ngra kichik guruhlar baholanadi.

Hamkorlikka asoslangan ta’limni amalga oshirishda o‘qituvchining mahorati asosiy kuchdir[6]. Chunki, kichik guruh a’zolarini jipslashtirish, hamkorlikka undash, faollashtirish va bilim samaradorligini oshirish juda murakkab vazifa. Shunday ekan, guruhlar bilan ishlaganda o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor berishi kerak:

1. Guruhlarga doimo aniq, tushunarli topshiriqlar bera olish, bunda guruh a’zolarining yoshi, fiziologik-ruhiy holatlarini inobatga olish va albatta ishning samarasi ijobiy ta’sir ko‘rsatishini bilish lozim.

2. Guruh bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarning murakkabligiga qarab ketadigan vaqtni aniq chamalab, oldindan ko‘ra olish, natijaga erishish uchun etarli vaqtni belgilashi kerak.

3. Ish yakuniga qarab guruhni ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish lozimligina unutmagan holda, qay yo‘sin bilan ularni mukofotlashni o‘ylab qo‘yish kerak bo‘ladi, chunki bu jarayon kichik guruh a’zolarini juda qiziqtiradi.

4. Guruh bo‘lib ishlaganda shovqin bo‘lishini hisobga olib, bunga ko‘nikish kerak. Chunki, aynan shu ishchi shovqinli o‘quvchilarni fikrlayotganliklaridan, turli g‘oyalar ichidan to‘grisini izlayotganliklaridan, kimlardir nimalarnidir isbot qilayotganliklaridan darak beradi.

5. Guruh tashkil etilganda va baxs davomida guruh a’zolari bilan ochiq samimiy munosabatda bo‘lish kerak.

6. Guruhlar ishlayotganda o‘qituvchi kuzatadi, eshitadi va albatta belgilab boradi kim?, nima qilyapti?, qanday?. Fikr mulohazalarini aytishga qiynalayotgan guruh a'zosi bo‘lsa o‘qituvchi uni gapirtira, olsa albatta uni qo‘llab-quvvatlab, fikrini to‘ldirib guruhga etkazishi lozim bo‘ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodining qator afzalliklarga ega bo‘lib ular quyidagilar:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha o‘quvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodining afzalliklari bo‘lganli bilan kamchiliklardan holi emasdir:

- kuchsiz o‘quvchilar bo‘lganligi sababli kuchli o‘quvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha o‘quvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin.
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, differentsial ta‘lim usullari bugungi kun o‘quvchilarining turli xil ta‘lim ehtiyojlarini qondirish uchun muhim yondashuvdir. Hamkorlikka asoslangan ta'limni amalga oshirishda kichik guruhlarda ishlash metodi guruh bo‘lib bajariladigan ishlar va muammoli topshiriqlarda ahamiyati katta bo‘lib qolmoqda. To‘g‘ri differentsial ta‘lim usullari bilan kichik guruhlarda ishlash metodi uyg‘unlashuvi ayrim kamchiliklarga- o‘qituvchiga yuklanayotgan ish ko‘lamining oshishi, guruhni nazorat qilish imkoniyati kamiyishi kabilar egadir.Lekin shunday bo‘lsa ham usul va metodning erishayotgan natijalari ijobiydir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metod.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli TDPU, 2013. – 115 b.
2. Полонский В.М. Словарь понятий и терминов по образованию и педагогике. - М.: Изд-во «Приобье», 2000. - 368 с.
3. Колишев Н.С. Индивидуально-дифференцированный подход в процессе обучения старшеклассников: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 1993.-16 с.
4. N. N. Azizxodjayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: TDPU, 2003
5. G‘.M.Abduqodirov Kasb ta'limi praktikumi T.: “Sharq” 2012.
6. N.X.Avliyakulov, N.J.Namozova. monografiya. Muammoli o‘qitish texnologiyalari. T. : Fan va texnologiyalar. 2008